

## TILSHUNOSLIKDA TERMINLARNI O'RGANISHNING ASOSIY TAMOYILLARI VA NAZARIY ASOSLARI

**Islomova Dilnoza Quvondiq qizi**

*2 kurs magistranti*

[islomovadilnoza155@gmail.com](mailto:islomovadilnoza155@gmail.com)

946635308

**Anotatsiya:** *Mazkur maqolada tilshunoslikdagi terminlar va terminologiyani o'rganishning asosiy tamoyillari va nazariy asoslari haqida so'z yuritiladi. Terminlarning lug'aviy tarkibdagi o'rni, ularning maxsus ilmiy sohalarga mos kelishi va yasalish usullari tahlil qilinadi. Terminning mohiyati, uning ilmiy va texnik sohalardagi ahamiyati, terminologiyaning rivoji va tartibga solish prinsiplari chuqur o'rganiladi. Turli tilshunos olimlarning terminologiyaga oid fikrlari qiyosiy ravishda tahlil qilinib, terminlar tizimi va ularning til taraqqiyotiga qo'shgan hissasi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Termin, terminologiya, ilmiy til, maxsus leksika, so'z yasalishi, termin tizimi, fan va texnika, o'zbek tilshunosligi, leksik birlik, terminlarning rivojlanishi.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются основные принципы и теоретические основы изучения терминов и терминологии в лингвистике. Анализируется роль терминов в лексическом составе, их соответствие специализированным научным областям и способы их формирования. Рассматривается сущность термина, его значение в научно-технических областях, а также принципы развития и регулирования терминологии. Проведен сравнительный анализ мнений различных лингвистов о терминологии, освещена система терминов и их вклад в развитие языка.*

**Ключевые слова:** *Termin, терминология, научный язык, специальная лексика, словообразование, система терминов, наука и техника, узбекская лингвистика, лексическая единица, развитие терминов.*

**Annotation:** *This article discusses the main principles and theoretical foundations of studying terms and terminology in linguistics. It analyzes the role of terms in the lexical structure, their correspondence to specialized scientific fields, and the ways in which they are formed. The essence of a term, its significance in scientific and technical fields, as well as the principles of terminology development and regulation, are examined. A comparative analysis of various linguists' views on terminology is provided, highlighting the system of terms and their contribution to language development.*

**Keywords:** *Term, terminology, scientific language, specialized vocabulary, word formation, system of terms, science and technology, Uzbek linguistics, lexical unit, term development.*

## KIRISH

Ayni paytda jamiyatimizda fan va texnika taraqqiyoti hamda siyosiy rivojlanishlar o'sib borishi natijasida yangidan yangi terminologik birliklar paydo bo'lishiga oid tabiiy jarayonni tadqiq etish borasida katta ishlar olib borishni talab etmoqda.

Tilshunoslikda termin, terminologiya masalalariga muhim tadqiqot obyekti sifatida e'tibor qaratiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida "termin" tushunchasiga "termin(lot.terminus- chek, chegara)-fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi; atama", deya ta'rif beriladi.<sup>34</sup>

Termin so'zi o'rnida ba'zan atama, istiloh so'zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to'g'ri emas. Atama bu to'g'ri emas. Atama termin so'ziga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. Istiloh so'zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va me'yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi.

Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va, asosan, nominativ funktsiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. Aynan shu o'rinda Helmut Felber fikrlari diqqatga sazovor: "Terminologiya" terminining o'zi uch xil ma'noga ega:

1. Terminologiya sohalar o'rtasidagi fan bo'lib, u maxsus tushunchani ifodalovchi termin, belgi kabilarni o'rganadi.

2. Terminologiya-maxsus sohaga oid tushunchalar tizimini ifodalovchi terminlar majmui.

3. Terminologiya-terminlar bilan ifodalangan maxsus soha tushunchalarining targ'ib qilinishi.<sup>35</sup>

"Termin" so'zining aynan yagona tushunchasi mavjud emas. Turli ilmiy fanlar vakillarida u o'ziga xos tushuncha va tasavvurlar bilan bog'lanadi, turlicha mazmun hajmiga ega va turlicha ta'riflanadi. A.Reformatskiy terminga ta'rif berar ekan, "... terminlar – bu maxsus so'zlardir" degan xulosaga keladi. Termin – tuzilishiga k o'ra so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, semantikasi jihatidan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir- deya

ta'kidlaydi P.Nishonov.<sup>36</sup>

## ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

<sup>34</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. A.Madvaliev tahriri ostida. –T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,2008. 606-b.

<sup>35</sup> Felber H.Terminological work and standardization. –Paris. 1974. –p.1

<sup>36</sup> Nishonov P. Frantsuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiesiy-tipologik tadqiqi. Nomz.disser...-Toshkent, 2009, 17 b.

.A.V. Kalinin muayyan fanlar va kasb-korlikda ishlatiladigan so'zlarni "maxsus leksika" deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi. 1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. U o'z fikrini davom ettirib, "Termin bilan professionalizmlar o'rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir" – deydi.<sup>37</sup> R. Doniyorov bu fikrga e'tirozan, "Bunday qat'iy da'vo, aslini olganda, tilni sinfiy deb hisoblagan ayrim "olim"larning qarashlari davomidir demak, xatoga yo'l qo'ymaymiz" deya munosabat bildiradi. H. Jamolxonov terminga munosabatda bo'lar ekan quyidagicha yozadi: "Terminlar fan-texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shone (botanikada); to'rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi".

**NATIJALAR.** Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyish, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omili uning tartibga solinganligi va muntazamligidir.

Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi. X. Xyuellning qayd etishiga ko'ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz<sup>38</sup>.

Termin so'zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunoslar (logiklar) uchun termin – aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig'indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so'z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so'z termin bo'lishi mumkin.

Fan va texnikada termin sun'iy o'ylab topilgan yoki tabiiy tildan olingan maxsus so'z sanaladi. Bunday so'zlarning qo'llanish sohasi u yoki bu ilmiy maktab vakillari tomonidan aniqlashtiriladi yoxud chegaralanadi. Umumtil so'zlaridan farqli o'laroq, ilm-fan, texnikaga xos terminlar iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga birlashadi, ular o'z ma'nolariga faqat ayni sistema ichida erishadi, bu sistemada ularga mantiqiy (tushunchaga oid) terminologik maydon mos keladi.

Termin va terminologik leksika tushunchalarini bir-biridan farqlash zarur. Terminlarning qo'llanish, tarqalish ko'lami muayyan terminologik sistema bilan

<sup>37</sup> Калинин А.В. Лексика русского языка. 1971. С.141

<sup>38</sup> Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vo. I-II. - London, 1967

cheklangan bo'lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi. Terminologik leksika o'z tarkibiga tor mutaxassislik doirasidan ommaviy mulqot doirasiga ko'chgan noprofessional nutqiy kontekstda keng qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarini qamrab oladi.

Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o'z-o'zidan, stixiyali tarzda paydo boimaydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi.

A.Gerdning mulohazasiga ko'ra, termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to'laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma'noga ega tabiiy va sun'iy til birligi, ya'ni so'z yoki so'z birikmasidir<sup>39</sup>. O.Axmanovanning ta'kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o'z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya'ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb etgandan so'ng tan olinadi. Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta'riflash mumkin emasligidadir. V.G.Gak terminning ta'rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so'z boyligidagi o'rnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug'aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e'tiroz bildiradi hamda termin- funksiya, leksik birliklar qo'llanishining bir ko'rinishi, degan g'oyani ilgari suradi<sup>40</sup>.

V.P.Danilenkning e'tirof etishicha, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday jarayonning in'ikosi dastavval terminologiyada o'z ifodasini topadi yoki muayyan terminlarning transformatsion o'zgarishi oqibatida voqelanadi.

D.Lottening ishlarida terminga alohida belgi sifatida emas, balki aniq sistemaning a'zosi shaklida qarash, munosabatda bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Uning fikriga muvofiq mazmun planidagi sistemli munosabatlar terminlarning sistem xarakterga egaligini belgilaydi. Terminlarning terminlar sistemasidagi o'rni, mavqei muayyan tushunchaning tushunchalar sistemasidagi o'mi, mavqei bilan aniqlanadi.

**MUHOKAMA.** Terminologiya turli-tuman maktab, ilmiy yo'nalish va aniq fikrlarga xos ketegorial apparatni ifodalovchi, terminlar sistemasiga birlashgan maxsus tushunchalar yig'indisi, majmui tarzida qaraladi<sup>41</sup>.

Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to'siqlar, yasaliş prinsiplari va usullari xususida turfa g'oyalar, nuqtayi nazarlar ko'zga tashlanadi.

Termin so'zi interpretatsiyasining substansional, funksional, derivatsion, semantik va pragmatik prinsiplari e'tirof etilmoqda. Substansional nuqtayi nazar vakillariga ko'ra, termin maxsus so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, boshqa nominativ birliklarga nisbatan bir ma'noliligi, aniqligi, sistemliligi, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turadi.

<sup>39</sup> Герд А.С. Значение термина и научное з

Funksional nuqtayi nazarga binoan terminlar maxsus soʻz emas, balki maxsus funksiyaga ega soʻzlardir; terminning oʻrni(rolini)ni istalgan soʻz bosishi, oʻynashi mumkin.

Derivatsion nuqtayi nazar terminlarning yasash jarayonlari bilan chambarchas bogʻlangan. Ushbu gʻoya tarafdorlarining fikricha, termin nafaqat oddiy soʻzning varianti, shuningdek, yangi, oʻziga xos spetsifik belgilarga ega maxsus yasalgan birlik sifatida ham tan olinadi. Yangi terminlarning yuzaga chiqish sabablari yangi realiyalarni ifodalash ehtiyoji bilan baholanadi. Terminga muayyan talablar qoʻyiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy soʻzlardan ajratib turadi.

Xullas, terminlar umumadabiy soʻzlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlamni oʻzida mujassam etadi. Ushbu farq quyidagi asosiy xususiyatlarda oʻz aksini topadi:

semiotik (terminlarda belgi va ifodalovchi oʻzaro simmetrik munosabatga kirishadi);

vazifaviy (terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga egaligi bilan ham xarakterlanadi);

semantik (terminlar faqat maxsus tushunchalarni ifodalaydi, ulaming har biri oʻz maʼnosiga koʻra unikaldir);

tarqalish, ommalashish (faqat fan tiliga oid terminlar muayyan qismining umumadabiy tilga kirishi ularning boshqa sistemaga xosligiga toʻsqinlik qilmaydi); shakllanish yoʻllari va vositalari (terminologiyada umumadabiy til soʻz yasalishi vositalarining harakati maxsuslashgan, standart, turgʻun modellarni ishlab chiqishga boʻysunadi)<sup>42</sup>.

Biz tadqiqotimizda diplomatik terminologiyaning qiyosiy tahlili jarayonida terminning funksional tabiati haqidagi kontseptsiyaga asoslanamiz, uning natijasi diplomatik va siyosiy terminlarning adabiy tilning funksional turi sifatida tan olinishidan iborat.

**XULOSA.** Mazkur ishda biz termini, uning terminologik maʼnosining asosi boʻlgan soʻz sifatida tushunishdan kelib chiqmoqdamiz. Ideal holatda terminlar - bu shunday soʻzlarki, ularning maʼno jihatdan tuzilishi bilimlarning muayyan tarmogʻi bilan bogʻliq mazmunlar bilan kifoyalanaadi.

Tadqiqotimizda termin va soʻzning asosiy mazmuni soʻzning maʼno jihatdan tuzilishining lugʻatda qayd etilgan birinchi maʼnosi hisoblanadi. Zamonaviy fan termin va terminologiyalarni shunchaki terminologik tizimlardan koʻra kengroq tuzilmalar elementlari sifatida koʻrib chiqish buning isbotidir.

Terminologiya fanning tushunchalari tizimiga mos terminlar tizimi sifatida taʼriflanadi. Tushunchalarning har bir tizimiga terminlarning muayyan tizimi mos keladi va yangi maʼlumotlar t oʻplangani sayin rivojlanadi.

Aslida termin va oddiy soʻzning farqli jihatlariga eʼtibor qaratmoqchi boʻlsak, bu hodisalarga oʻsha soha bilan shugʻullangan olimlarning fikrlariga nazar solish va shu

<sup>42</sup> Danilenko V.P. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. - М.: Наука, с 208

asosda termin va oddiy soʻz oppozitsiyani hal qilish maqsadga muvofiqdir. Odatda, olimlar terminlarning quyidagi belgilarini koʻrsatadilar:

- termin bir maʼnoli yoki bir maʼnoli tendentsiyaga ega;

-termin aniq, nominativ funktsiyaga ega boʻlib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funktsiyalari xos emas. Termin oʻzining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi;

- terminning maʼnosi tushunchaga tengdir;

-termin stilistik jihatdan neytraldir;

-terminologik leksika alohida sistemadir va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, har qanday til doimiy tarzda transformatsiya jarayoniga uchraydi, unga koʻplab xorijiy terminlar va soʻzlar kirib keladi. Bunday tendentsiya tabiiy jarayon hisoblanib, tilning soʻz boyligi kengayishiga, uni xalqqa yanada yaqin boʻlishiga sabab boʻladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Cabre, M.T. (1999). Terminology: Theory, Methods, and Applications. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company.

2. Temmerman, R. (2000). Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins.

3. Sager, J.C. (1990). A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.

4. Alontseva, M. (2012). The Formation of Scientific Terms in Uzbek Linguistics. Tashkent: Fan nashriyoti.

5. ISO 704:2009. Terminology Work: Principles and Methods. Geneva: International Organization for Standardization.

6. Khujakulov, A. (2015). "Linguistic aspects of terminology development in Uzbek scientific discourse". Uzbek Journal of Linguistics, 23(2), 45-56.

7. Lyons, J. (1977). Semantics. Vols. 1 & 2. Cambridge: Cambridge University Press.

8. Khang, R. (2020). "The Role of International Terminologies in the Development of Science". Journal of Global Linguistics, 12(4), 301-320.

9. Rassel, P. (2008). Terminology and Language Planning. Berlin: Springer.

10. Picht, H., & Draskau, J. (1985). Terminology: An Introduction. Guildford: University of Surrey Press.